Jazoni ijro etish muassasasi xodimlarining jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish faoliyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5005-sonli (10.04.2017) farmoniga[12] muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lgan jazolarni ijro etish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3200-son (11.08.2017) qarori[13] qabul qilindi. Qarorga asosan ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lgan jazolarni ijro etish sohasidagi faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish Ichki ishlar vazirligining eng muhim vazifasi deb etib belgilandi.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi PQ-4006-son (07.11.2018) qarori qabul qilindi[14]. Qaror bilan mahkumlar huquqlariga so'zsiz rioya etilishini, ularning sha'ni va qadr-qimmati hurmat qilinishini ta'minlash, ularning ongida qonunga itoatkor xulq-atvorni, insonga, mehnatga, ijtimoiy turmush qoidalari va an'analariga hurmat munosabatini shakllantirish, birinchi navbatda, voyaga yetmaganlar va yoshlarning ta'lim olishi, kasbiy tayyorgarligini tashkil etish hamda bandligini ta'minlash, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish mexanizmlarini tubdan qayta ko'rib chiqish, shartli hukm qilingan va jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan nazorat samaradorligini oshirish, jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan uzviy hamkorligini ta'minlash faoliyatini amalga oshirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy moslashuv jarayoniga ko'pgina holatlarda ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish samaradorligi; mahkumlarni ozodlikka chiqishga ma'naviy-ruhiy va tashkiliy jihatdan tayyorlash; mahkumlarning jazodan ozod qilinganidan keyin yangi ijtimoiy holatlarni ongli ravishda o'zlashtirishi; ijtimoiy foydali aloqalarni tiklash, fuqaroning huquqiy holati katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazolarni ijro etish muassasalarining faoliyati samaradorligini ta'minlash bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 128-son (2020) qarori[15] qabul qilindi. Qaror bilan "Ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalari to'g'risida NIZOM tasdiqlandi.

Ushbu nizomga asosan jazoni ijro etish muassasalarining asosiy vazifalari va funksiyalarini belgilandi. Yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda jazoni ijro etish muassasalari mahkumlarni tarbiyalash, ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, shuningdek, ularga ozod etilganidan so'ng ijtimoiy moslashuvi uchun ko'maklashish faoliyatini tashkil etish sohasida vazifalar yuklandi.

Tahliliy ma'lumotlarga ko'ra 2020-yil 713 nafar, 2021-yil 803 nafar, 2022-yil 845 nafar, 2023-yil 854 nafar, 2024-yilda 780 nafar shaxslar[16]ga Jazoni ijro etish muassasalari tashabbusi bilan ma'muriy nazorat o'rnatilishi yuzasidan, JIB sudga tegishli taqdimnomalarni kiritib JIB sudi tomonidan ma'muriy nazorat o'rnatilgan.

Jazoni ijro etish muassasasida ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan shaxsni jazoni ijro etish muassasasidan tashqarida normal hayotga qaytarish uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Ushbu chora-tadbirlar majmui ijtimoiy rehabilitatsiya va moslashuv deb tushuniladi.

Xususan, ozodlikda yashashga tayyorgarlik ko'rayotgan, ammo hali jazoni o'tayotgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlari majmui penitensiar moslashtirish deb ataladi. Penitensiardan keyingi va penitensiar darajadagi ijtimoiy moslashuv shakli, funksiyalari va shunga mos ravishda huquqiy tartibga solinishi bilan bir-biridan farq qilishi kerak. Biroq, afsuski, hozirgacha normativ-huquqiy hujjatlarda mahkumlarni ijtimoiy hayotga moslashish shakllarini me'yoriy darajada mustahkamlab qo'ymagan. Uzoq vaqt davomida davlat qaramog'ida bo'lib, noqulay vaziyatga tushib qolgan shaxs, uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ijtimoiy moslashuv davrida vakolatli organlardan tegishli yordam olmaganligi sababli, yana jinoyat va huquqbuzarlik sodir etishi mumkin.

Nazarimizda, ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirishni ikki davrga bo'lish mumkin:

a) Jazoni ijro etish muassasasi tashqarisidagi hayotga psixologik, axloqiy va huquqiy jihatdan tayyorlash;

b) ijtimoiy rol va xulq-atvorni aniqlash, jamiyat qadriyatlari va talablarini idrok etishni o'z ichiga olgan jamiyatda yashash sharoitlariga moslashishdir.

Jazoni ijro etish muassasasida jazo o'tayotgan shaxslarda qonunga itoatkorlik, jamiyatda yurish-turish qoidalariga hurmat munosabatini shakllantirishda ularga ta'lim olish va kasb-hunar o'rganishga ko'maklashish muhim omil hisoblanadi.

Tahliliy ma'lumotlarga ko'ra Jazoni ijro etish muassasalarida umumta'lim maktabi va kasb-hunar markazlarida o'qitilib, mutaxassislik bo'yicha sertifikatlar olgan mahkumlar 2020-yilda 820 nafar, 2021-yilda 2417 nafar, 2022-yilda 3865 nafar, 2023-yilda 6729 nafar, 2024-yilda 10639 nafar[17]ni tashkil etgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Jazoni ijro etish muassasasida mahkumni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish jarayonini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish mahkum shaxslarning ozodlikka chiqqanlaridan so'ng takroran jinoyat sodir etishlarining oldini oladi, jamiyatda jinoyatchilikning kamayishiga olib keladi. Mahkum shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirishda samaradorlikka erishish jazoni ijro etish muassasalari xodimlarining, ayniqsa, tarbiyachilarning pedagogik-psixologik tayyorgarliklari bilan uzviy bog'liqdir.

Jinoyat-ijroiya tizimidagi xodimlarning pedagogik-psixologik tayyorgarligini tadqiq etgan A.G.Chirikov[18] o'z tadqiqotlari davomida jazoni ijro etish muassasasida bevosita mahkumlar bilan ishlaydigan xodimlarda o'zlarining pedagogik-psixologik kompetentliklarining darajasi pastligidan tashvishlanish mavjudligini aniqlagan.

Xususan, psixolog B.N.Sirliyev jazoni ijro etish tizimi xodimlarining psixologik tayyorgarligini to'rt guruhga kiruvchi tarkibiy qismlarini ko'rsatib bergan. *Birinchi* guruhga xodimning kasbiy psixologik mo'ljallari va his-tuyg'ularini; *ikkinchi* guruhga xodimning kasbiy harakatlarni bajarishga psixologik jihatdan tayyorgarligini; *uchinchi* guruhga xodimning yuqori darajada rivojlangan kasbiy kuzatuvchanligi, sezgi, xotira, tasavvur jarayonlarini; *to'rtinchi* guruhga xodimning mahkum shaxslar bilan ishlash jarayonida vujudga kelgan murakkab vaziyatlarda ham xotirjamlikni saqlashi, his-tuyg'ularining barqarorligini kiritgan.

Yuqoridagilarni tahlil qilgan holda Jazoni ijro etish muassasasida mahkumlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish ishlari muassasaning pedagogik jamoasi, shuningdek, jazoni ijro etish muassasasining barcha xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli jazoni ijro etish muassasasi xodimlari alohida tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozim.

Profilaktika inspektorlarining jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish faoliyati.

O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" O'RQ-371-son (14.05.2014) Qonuni[19]ning qabul qilinishi huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari va chora-tadbirlari tizimi aniq belgilab berildi. Profilaktika inspektorlari tomonidan jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirishda huquqbuzarliklar yakka tartibdagi profilaktikasini samarali amalga oshirishi ko'p jihatdan mazkur chora-tadbirlarni qonun talablariga muvofiq, bir-biridan farqlab, tizimli va har biriga alohida yondashgan holda qo'llashiga bog'liq.

Profilaktika (katta) inspektorlari tomonidan profilaktik suhbat jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi ya'ni shaxsni jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariga rioya etishga ishontirish, g'ayriijtimoiy xulq atvorning ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini hamda qayta jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilgani uchun qonunda belgilangan javobgarlikni tushuntirishdan iborat bo'lib, suhbat davomida shaxsning o'ziga xos jihatlari, turmush tarzi va ijtimoiy-maishiy yashash sharoitlari, g'ayriijtimoiy xulq-atvori yoki sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarning sabablari va shart-sharoitlari aniqlanadi.

Shuningdek, profilaktik suhbatni qo'llashda hamma vaqt shaxsning jamiyatdagi yurish-turishida kriminogen imkoniyatning mavjudligini aniqlash hamda uning o'zi buni anglab yetishiga erishish muhim hisoblanadi[20]. Bu boradagi xorijiy tajribaga asoslanib, profilaktik suhbatni o'tkazish joyi, vaqti va davomiyligi uni qo'llayotgan subyekt tomonidan belgilanishi hamda uning taxminan bir soat davom etishi, bu jarayonda ko'rgazmali vosita va videotasvirlardan foydalanilishi tavsiya etiladi[21].

Xususan, o'tkazilgan profilaktik suhbat ijobiy natija bermagan va shaxs g'ayriijtimoiy yoki huquqbuzarlik sodir etishga moyil xulq-atvorni davom ettirgan hollarda, unga nisbatan rasmiy ogohlantirish qo'llaniladi.

Profilaktik suhbatdan farqli o'laroq, rasmiy ogohlantirishda shaxsga uning g'ayriijtimoiy xulq-atvorni davom ettirishiga yo'l qo'yib bo'lmasligi yozma ravishda tushuntirilib, uni huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlik haqida ogohlantiriladi. Rasmiy ogohlantirish shaxsga imzo qo'ydirib e'lon qilinadi, u imzo qo'yishdan bosh tortgan taqdirda esa, rasmiy ogohlantirishga bu haqda yozib qo'yiladi.

Fikrimizcha, rasmiy ogohlantirish qonun hujjatlari bilan amaliyotga joriy etilgan bo'lsada, shaxs rasmiy ogohlantirilganidan so'ng unga rioya etmaslik va g'ayriijtimoiy xulq-atvorni yoki huquqbuzarlikni davom ettirganlik uchun huquqiy oqibat belgilanmaganligi sababli, amaliyotda uning ta'sirchanligi past bo'lib qolmoqda. Faqat ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmoqda. Bu esa rasmiy ogohlantirishga u qo'llanilgan shaxs tomonidan jiddiy qaralmasligiga, uning talablari buzilishiga va o'z navbatida, uni qo'llashni e'tibordan chetda qoldirishiga olib kelmoqda[22].

Profilaktik hisobga olish O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 35-moddasida nazarda tutilgan shaxslarga nisbatan ularning tuzalishi va takroran huquqbuzarlik sodir etishining oldini olish maqsadida II Olari tomonidan amalga oshiriladigan profilaktika tadbirlari majmuidir[23].

Xususan qonunning 35-moddasiga asosan profilaktik hisobga olish quyidagi shaxslarga nisbatan yuritiladi:

- ilgari sudlanganlarga ular jinoiy jazoni o'taganidan so'ng, o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslar bundan mustasno;

- o'ziga nisbatan sudning jazo tayinlanmagan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan shaxslarga;

- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasiga muvofiq aybdorlik to'g'risidagi masala hal qilinmasdan turib o'ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan yoxud reabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qaror chiqarilgan shaxslarga;

- o'ziga nisbatan qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot chorasi tanlangan jinoyat sodir etishda ayblanuvchilarga;

- O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 40, 41, 45, 47, 52, 56, 58, 61, 106, 131, 165¹, 183, 184, 184¹, 184², 184³, 187, 188, 188¹, 189, 189¹, 190, 191, 201, 202, 202¹, 240, 241-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etganlarga;

- ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytganlarga.

Tahliliy ma'lumotlarga asosan Jazoni ijro etish muassasasidan jazoni to'liq o'tab bo'lgandan so'ng ozod etilgan 2020-yil 2501 nafar, 2021-yilda 1933 nafar, 2022-yilda 1698 nafar, 2023-yilda 1609 nafar, 2024-yilda 1578 nafar[24]ni tashkil etadi.

Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma shaxsni profilaktik hisobga olish asosi hisoblanib ushbu shaxslar yashash joyiga kelgan kundan e'tiboran 3 kun ichida profilaktik hisobga olinishi ammo ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslar bundan mustasnoligi belgilangan.

Tahliliy ma'lumotlarga asosan Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni profilaktik hisobga olingan shaxslar ko'rsatgichlarini tahlil qilganimizda 2020-yilda 8779 nafar, 2021-yilda 6920 nafar, 2022-yilda 9213 nafar, 2023-yilda 9650 nafar, 2024-yilda 13535 nafarni[25] tashkil etgan.

Xususan, profilaktika (katta) inspektorlar tomonidan profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan individual profilaktik ishlarni olib borilishiga qaramay ular tomonidan 2023-yilda 750 ta, 2024-yilda 752 ta jinoyat sodir etilganligi ko'rishimiz mumkin.

O'tkazilgan anketa so'rov natijalariga ko'ra respondentlarni 71% amaliyotda Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarga nisbatan yuritilayotgan profilaktik hisob ishlari shaxslarni jamiyatga moslashib ketishi ular tomonidan takroran jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishda ijobiy natija bermayotganligini ta'kidlangan.

Nazarimizda, profilaktika (katta) inspektori profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan yakka tartibda individual ishlashning samaradorligini oshirishda quyidagilarga amal qilishi kerak:

a) shaxs bilan yaqindan psixologik aloqa o'rnatishi; b) uning muammolariga jiddiy e'tibor berishi va oilasi hamda sog'lig'i haqida so'rashi; v) yashash joyining shart-sharoitlarini o'rganishi; g) uning bandlikka va kasbiy faoliyatiga qiziqish so'rashi; d) sodir yetgan ma'muriy va jinoiy qilmishlari shaxs, jamiyat va davlatga nisbatan salbiy holatlarni keltirib chiqarishini tushuntirishi; k) mamlakatda olib borilayotgan islohotlar yuzasidan unga vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usini uyg'otishi kelgusida yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarning natijadorligini oshirishga sabab bo'ladi. Yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarini o'tkazishdan asosiy maqsad ham shaxsni tuzalish yo'liga kiritish hisoblanadi.

Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish yakka tartibdagi profilaktikaning eng insonparvar chora-tadbirlaridir. Chunki uni qo'llashda belgilangan toifa shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatish hamda ushbu jarayonda ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirish ko'zda tutiladi.

Xususan, profilaktika (katta) inspektorlari Mahalla huquq tartibot maskaniga jalb etilgan xodimlar bu borada xizmat hududida jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilib, ish va yashash joyi noaniq bo'lganlarni shaxsini aniqlash, ijtimoiy foydali mehnat bilan

shug'ullanmayotgan va mehnatga layoqatli sog'lom fuqarolarni ish bilan ta'minlash, doimiy yashash joyi bo'lmagan va qarovsiz qolgan qariyalarni saxovat uylariga, nogironlarni muruvvat uylariga joylashtirishga ko'maklashish hamda ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish jarayonida shaxslarga huquqiy, tibbiy, kasbiy va ijtimoiy jihatdan tiklanishda yordam beradi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2896-son (18.04.2017) qarorida Tayanch punktlari va profilaktika inspektorlari faoliyatini tashkil etish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son (29.11.2021) farmoni[26] qabul qilindi. Jumladan: jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, profilaktika inspektorlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalari belgilandi.

Ushbu islohotlar natijasida huquqbuzarliklardan jabrlanganlar; g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega; huquqbuzarlik sodir etishga moyil; jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslar shuningdek huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashuvini ta'minlashda asosiy vazifalarini belgilab berilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 801-son (30.11.2024) qarori[27] qabul qilindi. Qaror bilan "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida NIZOM tasdiqlandi.

Ijtimoiy profilaktika tadbirlari quyidagi shaxslarga nisbatan amalga oshiriladi:

a) *huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli bo'lgan shaxslar:* band bo'lmagan yoki doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan ishsiz shaxslar; spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki inson aql-irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarga qaram bo'lib qolgan shaxslar; qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarga ruju qo'ygan shaxslar; g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar; qarovsiz va nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlar; ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilari; davlat ko'magiga muhtoj "og'ir" toifadagi yoshlar; huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan yoshlar; ajrim yoqasiga kelib qolgan va nizoli oilalar; yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar; muntazam tazyiq va zo'ravonlikka uchrab kelayotgan xotin-qizlar; jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va profilaktik hisobda turgan shaxslar; og'ir ahvolga tushib qolgan va og'ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar; tadbirkorlik faoliyatini boshlamochi bo'lgan shaxslar.

b) *huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli bo'lgan shaxslar:* parvarishga muhtoj yolg'iz keksalar; nogironligi bo'lgan va og'ir kasallikka chalingan shaxslar.

Profilaktika (katta) inspektori ijtimoiy profilaktika obyektlaridan spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki inson aql-irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarga qaram bo'lib qolgan shaxslar; qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarga ruju qo'ygan shaxslar; g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar; jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va profilaktik hisobda turgan shaxslar; qarovsiz va nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlarning turmush tarzi, xulq-atvori, oilaviy sharoiti va kasbiy layoqatini o'rganadi, hokim yordamchisi

tomonidan ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda bandligini ta'minlash bo'yicha zarur choralar ko'rilishida yordam beradi.

Xulosa. Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan shaxslar turli ijtimoiy yordamga muhtoj aholining boshqa barcha toifalaridan farqli o'laroq, ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jinoiy jazoni o'tagan shaxslar, *birinchidan*, ko'p hollarda ushbu yordamni olmaydilar, *ikkinchidan*, ularga allaqachon tanish bo'lgan ijtimoiy muhitdan unga moslashishni talab qiladigan boshqa muhitga utishga, ular o'tmish bilan bog'liq muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar, *uchinchidan*, ozodlikdan mahrum qilish, ayniqsa, uzoq muddatga mahkumlarni qarindoshlari bilan ijtimoiy foydali aloqalarni yaqindan saqlash imkoniyatidan mahrum qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://www.uzembassy.uk/news/1182?language=uz>
2. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" O'RQ-371-son (14.05.2014)// <https://lex.uz/docs/2387357>
3. Zaripov Z.S., Ismailov I. Kriminologiya: darslik. – T., 1996. – B. 173.
4. Martinenko O.A. Determinatsiya i preduprezhdeniye prestupnosti sredi personala organov vnutrennix del Ukraini: Monografiya. – X., 2005. – S. 39.
5. Muxtorov J.S. Ichki ishlar idoralari profilaktika xizmatlari tomonidan jinoyatlarning oldini olishni ta'minlash: Yurid. fan. nomzodi dis. – T., 2009. – B. 27.
6. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" O'RQ-371-son (14.05.2014)// <https://lex.uz/docs/2387357>
7. Ziyodullayev M. "Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish" dissertatsiya (DSc) 20-b 2019-yil
8. Радко Т.Н., Толстик В.А. Функции права: Монография. – Нижний Новгород: Нижегородская высшая школа МВД РФ, 1995. – С. 26.
9. Жильский Н.Н. Органы внутренних дел в государственном механизме обеспечения общественного порядка и безопасности граждан (организационно-правовой анализ) : дисс... д-ра юрид. наук. – Санкт Петербург, 2000. – С. 88.
10. O'zR Prezidentining "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2896-son (18.04.2017 y.) qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi to'g'risidagi Nizomda HPBBning funksiyalari sifatida uning asosiy vazifalari ijrosini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan//<https://lex.uz/ru/docs/3175732>
11. O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi jazoni ijro etish departamenti tahliliy ma'lumotnomasi.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5005-sonli (10.04.2017) farmoni//<https://lex.uz/docs/3159827>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lgan jazolarni ijro etish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3200-son (11.08.2017) qarori//<https://lex.uz/docs/3309651>
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4006-son (07.11.2018) qarori//<https://lex.uz/uz/docs/4045443>
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazolarni ijro etish muassasalarining faoliyati samaradorligini ta'minlash bo'yicha

- tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 128-son (05.03.2020) qarori//<https://lex.uz/ru/docs/4756536>
16. O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi jazoni ijro etish departamenti tahliliy ma'lumotnomasi.
17. O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti tahliliy ma'lumotnomasi.
18. Чириков А.Г. Подготовка сотрудников уголовноисполнительной системы к обеспечению личной безопасности (психолого-педагогическая составляющая). Автореферат. дисс. канд. педагог. наук (13.00.08). 2004. –с. 25.
19. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" O'RQ-371-son (14.05.2014)// <https://lex.uz/docs/2387357>
20. Энциклопедия современной юридической психологии / Под общей редак. проф. А.М. Столяренко, 2002 г. / (Эл. Манба). – Режим доступа: – URL: <http://determiner.ru/dictionary/993> (мур. вақти: 18.03.2017).
21. Павловский А. Профилактика правонарушений на новых основах / (Эл. Манба). URL: <http://statut.by/lichnyi-jurist/13-respect-law/624> (мур. вақти: 18.03.2017).
22. Зиёдуллаев М.З. Профилактика инспекторларининг ҳуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикаси бўйича фаолияти // ЎзР ИИБ Академиясининг ахборотномаси. – 2017. – № 4. – Б. 43.
23. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2017-yil 25-avgustdagi 191-son buyrug'i
24. O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti tahliliy ma'lumotnomasi.
25. IIV tahliliy ma'lumotnomasi
26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son (29.11.2021) farmoni//<https://lex.uz/uz/docs/5749291#5749827>
27. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 801-son (30.11.2024) qarori// <https://lex.uz/uz/docs/7243832>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).